



BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHISI KASBIY-METODIK KOMPETENTLIGI TUZILMASI

Isroilova R.S.

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti

Tayanch so‘zlar: kompetentlik, kasbiy-metodik, kasbiy-metodik kompetentlik, kasbiy faoliyat, pedagogik faoliyat, pedagogik boshqaruv.

Ключевые слова: компетентность, профессионально-методическая, профессионально-методическая компетентность, профессиональная деятельность, педагогическая деятельность, педагогический менеджмент.

Key words: competence, professional-methodical, professional-methodical competence, professional activity, pedagogical activity, pedagogical management.

Резюме:

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy-metodik kompetentligi tuzilmasi tahlil qilingan. Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy, metodik kompetentliklari bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Резюме:

В данной статье анализируется структура профессионально-методической компетентности будущего учителя начальных классов. Также даются предложения и рекомендации по профессиональным и методическим компетенциям будущих учителей начальных классов.

Summary:

This article analyzes the structure of the professional-methodical competence of the future primary school teacher. Also, suggestions and recommendations on professional and methodical competences of future primary school teachers are given.

Kasbiy faoliyat esa o‘z navbatida faoliyatning turlaridan biri hisoblanadi. Inson faoliyatining barcha turlari deyarli birlashgan, bir-biri bilan kesishuvchi va bu o‘zida muloqot, o‘yin, ta‘lim va mehnat elementlarini birlashtiruvchi pedagogik kasb misolida ayniqsa yorqin ifodalanadi. Faoliyatning alohida turlarini mustaqil o‘rganish obyektlariga ajratish – muayyan gnoseologik va metodologik shart-sharoitlarning natijasi. U ko‘p jihatdan konvensional (kelishuvli, ko‘p jihatdan volyuntaristik) xususiyatga ega. Haqiqatda, ko‘pgina faoliyat turlarining biror-birining ustunligi sharoitlariga ko‘ra majmuaviy umumiyliги to‘g‘risida fikr bildirish mumkin. Masalan, o‘qituvchi faoliyatidagi mavjud bo‘lgan



tashkilotchilik holati ta'lim oluvchilar bilan muloqot (kommunikatsiyaga) e'tiborini nazarda tutadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatining o'ziga xosligi "o'quv faoliyati" tushunchasi bilan ko'pincha o'xshatiladigan "ta'lim" atamasiga e'tibor qaratishni talab etadi. Ta'lim "muayyan bilim, ko'nikma, malakalarni, xulq shakllari va faoliyat turlarini o'zlashtirish" asosiy maqsadiga bo'ysunadi, u "faol gnostik (bilishga oid) faoliyatda ifodalanadi va unga asoslanadi" [1]. Ta'lim va o'quv faoliyatini tor ma'noda kichik maktab yoshiga xos bo'lgan yetakchi faoliyat turi sifatida talqin etiladi.

I.A.Zimnyaya o'quv faoliyatiga integral tavsif berib, bu "subyektning o'quv xatti-harakatlarining umumlashgan usullarini egallash va o'qituvchi tomonidan o'zini-o'zini nazorat qilish va o'zini-o'zi baholashga o'tuvchi, tashqi nazorat va baholash asosida maxsus qo'yilgan o'quv vazifalarini hal etish jarayonida o'zini-o'zi rivojlantirish bo'yicha faoliyat" deb ta'kidlaydi [1]. Bunday talqinda o'quv faoliyati oldingi o'ringa o'qituvchi timsolini chiqarishni ilgari suradi.

O'zining gnostik yo'nalganligini yo'qotmay, u bir vaqtda pedagogik faoliyatga aylanadi va uning mazmuni ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatlarini amalga oshirish uchun optimal sharoitlarni yaratishdan iborat. U ta'lim oluvchi va o'qituvchining rivojlanishi hamda takomillashishini ko'zda tutishi uning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

O'qituvchi qo'llaydigan nazorat va baholash nafaqat ta'lim oluvchining o'quv faoliyatini rag'batlashtirish vositalari, balki shaxsni tarbiyalash, ta'lim berish va rivojlantirish omillari ham hisoblanadi. Chunki o'qituvchi nafaqat bilimlarni yetkazuvchi rolida xizmat qiladi, balki o'tmish ajdodlar madaniyati va tajribasining ifodasi sifatida ta'lim oluvchi uchun tarbiyachi va ustoz hisoblanadi. Natijada, o'quv faoliyati nafaqat o'qituvchilik, balki o'quv shaxsini shakllantiruvchi tarbiyaviy, ta'limiy – to'liq ma'nodagi pedagogik ishga aylanadi.

Bilimlarning mazkur tarmog'i fundamental ta'riflarini tahlil etuvchi an'anaviy va zamonaviy pedagogikaga murojaat etish bizni aynan shunday xulosaga olib keladi: "pedagogik faoliyat", "pedagogik jarayon", "o'qitish", "ta'lim berish", "tarbiyalash" va hokazo. Masalan V.A.Slastenin pedagogik faoliyatni "insoniyat tomonidan to'plangan madaniyat va tajribaning katta avloddan kichik avlodlarga yetkazishga, ularning shaxsiy rivojlanishlari va jamiyatda muayyan ijtimoiy rollarni bajarishga tayyorlashga yo'naltirilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi" sifatida ta'riflaydi. Maxsus tayyorlangan insonlar va muassasalar tomonidan amalga oshirilganida kasbiy deb nomlanadi, qolgan holatlarda esa mualliflar uni umumpedagogik deb atashni taklif etadilar. Pedagogik faoliyatning tizim hosil qiluvchi tavsifning maqsadi – barkamol rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan



iborat. Pedagogik maqsad – tarixiy va dinamik hodisadir. Pedagogik faoliyatning funksional birligi pedagogik xatti-harakat bo‘lib hisoblanadi. Muallif pedagogik faoliyatning asosiy turlari sifatida tarbiyaviy ish va o‘qitishni ta’kidlaydi. Tarbiyaviy ish tarbiyaviy muhitni tashkil etishga va tarbiyalanuvchilarning turli-tuman faoliyat turlarini boshqarishga yo‘naltirilgan. O‘qitish asosan o‘quvchilarning bilishga oid faoliyatlarini boshqarishga yo‘naltirilgan. V.A.Slastyoning o‘qitishga pedagogik jarayonni tashkil etish usuli sifatida murojaat etib “o‘qitishpedagog tomonidan boshqariladigan bilishga oid o‘ziga xos jarayon” deb ta’kidlaydi. Bunga asosan haqiqiy o‘qitish – bu ko‘pgina hollarda tarbiyaviy ta’sirlardan kam bo‘lmagan malakalarni talab etuvchi kasbiy pedagogik faoliyat hisoblanadi.

Shuning uchun biz muallifning “bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy-metodik tayyorgarligi mazmunida o‘qituvchilik malakalari emas, balki tarbiyaviy ish malakalari birlamchi hisoblanadi” deb ta’kidlagan fikrlariga qo‘shilmaymiz. O‘qituvchilik mahorati, bizningcha, o‘qitish va tarbiyaviy malakalarning umumiyligidir.

Yakuniy natijada, o‘qitishning muhim funksiyalarini (ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi) sanab o‘tishda hamda o‘qituvchi faoliyatining mazmuni “o‘quvchilarning faol va ongli bilishga oid faoliyatlarini boshqarishdan iborat ekanligi” haqida fikr bildirib, muallifning o‘zi ham bunday xulosaga keladi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarlik faoliyatini yanada takomillashtirishning quyidagi yo‘nalishlarini belgilab olishimiz zarur:

oliy ta’lim muassasalari talabalarining pedagogik va kasb darajasini muntazam oshirish maqsadida ularning nazariya, ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o‘qitilayotgan mutaxassislik fanlar bo‘yicha innovasiyalar, shuningdek, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari sohasidagi so‘nggi yutuqlarni chuqur o‘rganish;

yuqori samarali zamonaviy ta’lim va innovasiya texnologiyalari, ilg‘or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda, oliy ta’lim muassasasi ta’lim yo‘nalishi, mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv rejalari, dastur va uslublari zamon talabi ehtiyoji asosida takomillashtirish;

oliy ta’lim muassasalari talabalarining global internet tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullaridan foydalangan holda, zamonaviy innovation pedagogika, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini egallashi va ularni o‘quv jarayoniga faol tatbiq etishi;

oliy ta’lim muassasalari talabalarining, ya’ni bo‘lg‘usi pedagog kadrlarining chet tilini amaliy o‘zlashtirish darajasini oshirish va undan o‘z kasb mahorati, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttasil oshirib borishi uchun keng foydalanishi;



oliy ta'lim muassasalari ta'lim yo'nalishlarida uzluksiz malakaviy amaliyotni yuqori saviyada o'tkazish va tanlangan ob'ektlarda bitiruv malakaviy ishlarni tajriba sinovdan to'laqonli bajarilishiga erishish;

magistrantlarni stajirovkalarda ilmiy faoliyat bo'yicha ish olib borishga, ilmiy adabiyotlarni taxlil qilishga, ilmiy ish bo'yicha o'tkazilgan tajriba sinovdan olingan natijalarni ilmiy asoslashga o'rgatish [2].

Ushbu yo'nalishlarning barchasini ta'minlanishi oliy ta'lim muassasalari talabalarining, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatini tashkil etish, kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishga nisbatan mas'uliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Pirovard natijada yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va salohiyatini oshirishga erishiladi.

I.A.Zimnyaya pedagogik faoliyat mohiyatini tarbiyani ta'lim bilan birlashtirishda, pedagogning ta'lim oluvchi bilan samarali muvofiqlashtirilgan o'zaro munosabatlarini ko'radi: "Pedagogik faoliyat o'qituvchining o'quvchining shaxsiy, intellektual va faoliyatli rivojlanishiga yo'naltirilgan, o'zini-o'zi rivojlantirish va o'zini-o'zi takomillashtirishning asosi sifatida xizmat qiluvchi, ta'lim oluvchilarga tarbiyaviy va ta'limiy ta'sirini ifodalaydi".

Inson faoliyatining boshqa ixtiyoriy maqsadga muvofiqlik, motivatsiya, fanga oidlik va mahsuldorlik kabi pedagogik faoliyat qator tavsiflarga ega. Muallifning fikricha, pedagogik faoliyat predmeti "ta'lim oluvchilarning rivojlanish asosi va shart-sharoitlari sifatidagi fanga oid ijtimoiy-madaniy tajribani egallashlariga yo'naltirilgan ularning o'quv faoliyatlarini tashkil etish" hisoblanadi.

Pedagogik faoliyat vositalari ta'lim oluvchilarni shakllantiradigan ilmiy va amaliy bilimlari uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy-madaniy tajribani yetkazish usullari bo'lib didaktik usullar hisoblanadi. Pedagogik faoliyat mahsuli – ta'lim oluvchining shakllantiriladigan individual tajribasi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning natijasi bo'lib ta'lim oluvchining shaxsiy rivojlanishi xizmat qiladi [3].

I.A.Zimnyayaning fikriga ko'ra pedagogik faoliyatning mahsuldorligi darajalari to'g'risida N.V.Kuzmina tomonidan ajratilgan mezonlar asosida fikr yuritish mumkin. Birinchisi - reproduktiv "pedagog o'zi bilganini boshqalarga aytib bera oladi". Bu daraja mahsuldor bo'lmagan deb nomlanadi. Ikkinchisi, moslashuvchi – "pedagog o'z xabarini auditoriyaning xususiyatlariga moslashtirishni biladi". Uni kam mahsuldor deb ataydilar [1]. Uchinchisi, lokal modellashtiruvchi – "pedagog ta'lim oluvchilarni kursning alohida bo'limlari bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarga o'rgatish strategiyalarini egallagan". Ular o'rta mahsuldor deb ataladi. To'rtinchisi, ta'lim oluvchilarning bilimlarini tizimli modellashtiruvchi – "pedagog ta'lim oluvchilarning fan bo'yicha umumiy bilim,

ko'nikma, malakalari tizimini rivojlantirish strategiyalariga ega". Bu mahsuldor daraja. Beshinchisi – ta'lim oluvchilarning faoliyatlari va xulqlarini tizimli modellashtiruvchi – “pedagog o'z fanini ta'lim oluvchi shaxsini, uning o'zini-o'zi tarbiyalash, mustaqil ta'lim, o'zini-o'zi rivojlantirishga ehtiyojlarini rivojlantirish vositasiga aylantirish strategiyalarini egallagan”. Mazkur daraja yuqori samarali hisoblanadi [1]. Bir qator afzalliklarga ega, ammo bizning fikrimizcha, kamchiliklardan ham holi emas. Pedagogning boshqalarga o'z bilganlarini aytib berish malakasi, o'z xabarini auditoriya ehtiyojlariga moslashtirish qobiliyati singari, bizningcha, minimal yoki past mahsuldorlik ko'rsatkichi, chunki umuman kasbiy pedagogik faoliyatning belgisi hisoblanmaydi.

Yuqori darajalarda so'z yuritiladigan bilimlarni ishonchlarga aylantirish ham muammolidir (xulq shakllarini rivojlantirishda bilimlardan ko'ra muammolarni yechish tajribasi, odatlar, hissiyotlar va boshqa omillar ahamiyatli hisoblanadi).

Pedagogik faoliyatning strukturasi to'g'risidagi masalaga, ya'ni o'qituvchi mehnatining mustaqil, ammo shu bilan birga o'zaro bog'liq komponentlarini ajratishga murojaat etganimizda uning batafsil tavsifiga ega bo'lamiz. Zamonaviy pedagogika fanida pedagogik jarayon o'zaro aloqador komponentlar tizimi sifatida tushuniladi: 1) faoliyat maqsadi; 2) o'qituvchi; 3) ta'lim oluvchilar; 4) faoliyat mazmuni; 5) faoliyat vositalari va usullari; 6) faoliyat natijasi. Mazkur tizimda o'qituvchi faoliyatning ko'pgina turlarini amalga oshiradi. Kasbiy tilda ular pedagogik funksiyalar deb ataladi.

Agar avval bolalarning birinchi o'qituvchisi rolini ko'pincha tor ma'noda, ta'lim oluvchilarni fan bilimlari asoslari va sodda o'quv ko'nikma va malakalarni o'rgatish sifatida tushunilgan bo'lsa, bugungi kunda uning vazifalari kengaygan va o'rta maktab o'qituvchisining vazifalari bilan tenglashdi. Asosiy pedagogik vazifa o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish hisoblanib, tayyorlov, rejani amalga oshirish bosqichi va yakuniy bosqich kabi uchta bosqichlarga ajratish mumkin. Tayyorlov bosqichi maqsadni belgilash, tashhis, prognozlash, loyihalash va rejalashtirishdan tashkil topadi. Rejani amalga oshirish bosqichida o'qituvchi axborot, tashkiliy, baholash, nazorat va tuzatish vazifalarini, yakuniy bosqichda – tahliliy vazifani amalga oshiradi [4].

Shu bilan birga faoliyatda ajratiladigan strukturaning tashkil etuvchilari turli ilmiy yondashuvlarda farqlanadi. Masalan, A.K.Markova unda motivatsion-yo'naltiruvchi, ijrochilik, nazorat-baholash kabi uchta bo'g'in mavjud deb hisoblaydi [5]. A.K.Dusaviskiy ham pedagogik faoliyatning uchta asosiy komponentlarini ajratadi. Birinchi komponent – o'zini-o'zi rivojlantiruvchi “pedagog-bola” pedagogik tizimini loyihalashdan iborat. Pedagogik faoliyatning ikkinchi komponenti – bevosita sinfdagi ta'lim oluvchilarning rivojlanish



jarayonlarini boshqarish hisoblanadi. Uchinchi komponent o'quv faoliyatini rivojlantirish jarayonining aniq natijalarining tahlili, ularni dastur bilan taqqoslash va tuzatishlar kiritishni ko'zda tutadi [6].

O.A.Abdullina o'z ishlarida funksional yondashuvni rivojlantirish, o'qituvchi-tarbiyachi ishining aniq turlari bilan muvofiqlikda pedagogik malakalarning mazmuni va turlarini ishlab chiqqan. U quyidagi pedagogik funksiyalarni ajratgan: 1) o'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim oluvchilarning bilishga oid faoliyatlarini boshqarish; 2) ta'lim oluvchilar bilan sinfdan tashqari tarbiyaviy ish o'tkazish va ularning o'z-o'zlarini tarbiyalashlarini boshqarish; 3) «aholi o'rtasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni o'tkazish va pedagogik bilimlarni targ'ib qilish»; 4) ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va yetkazish, ilg'or pedagogik tajribaning tahlili va umumlashtirish hamda shaxsiy tajribani umumlashtirish; 5) mustaqil ta'lim olish [7]. Agar milliy maktab va pedagogika rivojlanishining o'tgan davrining o'ziga xosligi bilan bog'liq bo'lgan uchinchi vaziyat chiqarib tashlansa, unda bizning oldimizda – yaxlit va to'liq struktura hosil bo'ladi, ammo ko'rib turganimizdek u yagona mumkin bo'lgan deb hisoblanmaydi.

I.P.Podlasiy pedagogik funksiyani “pedagog uchun belgilangan kasbiy bilim va malakalarni qo'llashning yo'nalishi” sifatida ta'riflaydi, pedagogik mehnat ta'lim oluvchilarni o'qitish, ta'lim va tarbiya berish bilan bog'liqligi sababli “o'qituvchining asosiy vazifasi – o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish, rivojlantirish jarayonlarini boshqarish” hisoblanadi deb ta'kidlaydi. U pedagogik mehnatning asosini insonning shakllanishida kechadigan barcha jarayonlarni boshqarishda ko'radi. O'qituvchi amalga oshiradigan ishlarini pedagogik menejment deb atash mumkin [8].

Agar pedagogik boshqaruv o'qituvchining asosiy funksiyasi bo'lsa, unda uni boshqa, xususiy funksiyalar ko'rinishida ifodalash mumkin. Muallifning fikriga ko'ra ular o'ntadan iborat: maqsadni belgilash, diagnostik, prognostik, loyihalash, rejalashtirish, axborot, tashkiliy, baholash-nazorat va tahliliy. Ularning barchasi “pedagogik loyiha” ni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular ostida muallif ixtiyoriy pedagogik aksiyani tushunadi. Funksiyani amalga oshirish muayyan natijaga olib keladi. Tayyorlov bosqichida – bu maqsad, tashhis, prognoz, loyiha va reja hisoblanadi. Loyihani amalga oshirish bosqichida – bu axborot, tashkil etish, baholash, nazorat va tuzatish kiritish. Yakuniy bosqichda – bu tayyor natija hisoblanadi.

I.F.Xarlamov o'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchi pedagogik faoliyatining sakkizta turlarini sanab o'tadi: a) diagnostik; b) prognosti-yo'naltirilgan; v) konstruktiv-loyihaviy; g) tashkiliy; d) axborot-tushuntirish; ye) kommunikativ-rag'batlantiruvchi; j) tahliliy-baholash; z) ilmiy-nazariy. Pedagogik faoliyat



mazmuni o'zgartirilgan holatlarda o'qituvchi o'zi uchun yangi rolda xizmat qiladi, masalan sinf rahbari bo'ladi, funksiyalarning mazmuni ham yangilanadi. Ular beshta funksiyalardan tashkil topadi: a) kognitiv-diyagnostik; b) tashkiliy-rag'batlantiruvchi; v) umumiy-birlashtiruvchi; g) muvofiqlashtiruvchi; d) shaxsiy-ruvojlantiruvchi [9]. O'quv-bilish faoliyatidan e'tiborni tarbiyaviy faoliyatga ko'chirish, ma'lumki o'qituvchiga funksional talablarda aks etadi, bunda uning qator xatti-harakatlari o'zgarmay qoladi, chunki birinchi va ikkinchi holatda jamoaviy o'zaro munosabatlar umumiy mexanizmida ta'lim oluvchilarning turli xil individualliklarini muvofiqlashtirish va tashkil etish nazarda tutiladi.

Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, kasbiy funksiyani «kasbiy faoliyat turi» bilan tenglashlashtirish maqsadga muvofiq emas. O'qituvchining pedagogik faoliyati yagona va «turlar»ga ajratilmaydigan hisoblanadi, bu o'quv-tarbiya jarayonining umumiyligi bilan bog'liqdir, shu bilan birga uning doirasida alohida funksiyalar ajratilishi ham mumkin. Bizning fikrimizcha, kasbiy funksiyaning asosiy o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

Nisbatan mustaqillik. Har bir kasbiy funktsiya pedagogik faoliyatning muayyan vazifasining yechimini ta'minlabgina qolmay, balki prinsiplarning mustaqil tizimi bilan aniqlanadi va texnologiyalar, ish shakllari va metodlari tizimining o'zida amalga oshadi. Masalan, o'qituvchilarning ijtimoiylashuvi pedagogik faoliyatning alohida masalasi hisoblansada, ammo alohida funktsiya sifatida ajratila olmaydi, chunki mustaqil hal etilmaydi, balki sinfdan tashqari faoliyat, o'qitish va boshqalar orqali hal etiladi;

Pedagogik jarayon doirasida boshqa kasbiy funksiyalar bilan bevosita aloqadorlik: hech bir funktsiya butun pedagogik jarayonga ziyonsiz olib tashlana olmaydi;

Tashkiliy bo'linish imkoniyati. Muayyan sharoitlarda u yoki bu kasbiy funktsiyani bajarish alohida xodimga topshirilishi mumkin, ammo uning faoliyati boshqa vazifalarni amalga oshiruvchi xodimlardan uzilishda amalga oshirilishi mumkin emas. Masalan, sinfdan tashqari faoliyat tashkilotchisi «ko'p funktsiyalarga ega» xodim bo'lib, sinf rahbarlari va fan o'qituvchilari bilan yaqin aloqada ish olib boradi. Ishdan alohida sinf rahbari – xuddi shunday ko'p funktsional lavozim bo'lib, mazkur sinfdan dars o'tuvchi fan o'qituvchilari faoliyatidan ajralgan holda amalga osha olmaydi. Shu bilan birga, masalan bilimlar nazorati o'qitishning boshqa komponentlaridan tashkiliy ajrala olmaydi va shu sababli pedagogik faoliyatning alohida funktsiyasi sifatida qarala olmaydi. Shu tariqa, biz kasbiy funktsiya ostida pedagogik jarayon doirasida tashkiliy bo'linishga qadar, nisbatan mustaqillikka ega bo'lgan kasbiy faoliyat komponentini tushunamiz.



O'tkazilgan psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili ko'pgina hollarda pedagogik faoliyat strukturasi funksional modeli uch tashkil etuvchili ta'limdan iboratligini ko'rsatdi. Uning birinchi komponenti – gnostik, madaniy-axborot komponenti – o'qitish, ta'lim va tarbiyaning dunyoqarash, metodologik va aksiologik jihatlari bilan bog'liq, ikkinchisi – tashkiliy-amaliy – o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning kommunikativ o'zaro aloqalari mantiqiga bo'ysungan, uchinchisi – yordamchi – pedagogik o'zaro aloqalarning boshlanishi, borishi va yakunlanishini ta'minlaydi. Sanab o'tilgan komponentlar, o'z navbatida alohida funksional birliklarga ajralishi, bir-biri bilan birlashishi, muvofiqlashtirilgan aloqalarni yuzaga keltirishi mumkin. Yirik yoki mayda funksional komplekslarni belgilash – atamalar texnikasiga taalluqlidir.

Faoliyat xususiyati va uning tuzilishi mahoratli pedagog ishlaydigan ob'ekt ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Ixtiyoriy mehnat sub'ekt va ob'ekt tomonidan qaralashi sababli, mehnat ob'ekti me'yoriy, subyektiv niyatlar va baholarga aloqador bo'lmagan o'qituvchi mehnat faoliyati strukturasi belgilaydi.

Mehnat faoliyatining obyektiv tarkibi mehnat predmeti (inson nima bilan ishlashi), kasbiy vazifalar, hatti-harakatlar va operatsiyalar, vositalar, shart-sharoitlar, mehnat natijasi kabi elementlarni o'z ichiga kiritadi. Yuqorida sanab o'tilgan o'qituvchi mehnati uchun xos bo'lgan belgilangan operatsiyalar va funksiyalar mehnat ob'ekti yoki pedagogik kasb strukturasi deb atalishi mumkin. Ammo pedagogik faoliyat ob'ektining ko'rsatkichlari ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o'zgarishi bilan muayyan tarzda o'zgaradi: yangi funksiyalar paydo bo'lishi, eskilari yo'qolishi mumkin, pedagogik faoliyat boshqa funksiyalarining ahamiyati ierarxiyada ortib borishi yoki pasayishi mumkin. Masalan, innovatsion maktablarning paydo bo'lishi, ko'pgina umumta'lim muassasalarining rivojlanish sur'atlariga o'tishi, metodik ishlarni ilmiy-metodik ishga o'zgartirish ommaviy pedagogik faoliyatning yangi ob'ektining – umumlashtirish, anglash, ilmiy o'rganishni talab etuvchi innovatsion pedagogik tajribaning paydo bo'lishiga olib keldi.

Maktablarning ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish tashkilot va muassasalar kabi pedagogik faoliyat ob'ektlarining paydo bo'lishiga olib keldi – maktabning ijtimoiy hamkorlari, ular bilan o'zaro aloqalar pedagogik faoliyatning yangi funksiyalaridan biriga aylanadi.

Shuningdek, masofaviy ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi pedagogik faoliyatning masofaviy o'quv va ta'lim oluvchilarning masofaviy guruhi (sinfi) kabi tubdan yangi ob'ektlarning paydo bo'lishi bilan sodir bo'ldi va zamonaviy o'qituvchi faoliyatining funksional strukturasi sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ammo



ko'pgina ko'rsatilgan o'zgarishlar boshlang'ich sinf o'qituvchisiga oz miqdorda taalluqlidir.

Mehnatning obyektiv tomonini mehnatni samarali bajarish uchun insonga zarur bo'lgan psixologik tavsiflar - mehnat sub'ekti ifodalagan subyektiv tomonidan farqlash lozim. Ularga shaxsning yo'nalganligi, insonni mazkur kasbiy faoliyatga jalb etish motivlari va maqsadlari, ijodga ehtiyoj, kasbiy moyilliklar darajasi, mehnatdan qoniqish, kasbiy o'z-o'zini anglash, kasbiy qobiliyatlar, kasbiy fikrlash turi va boshqalar taalluqli. Psixogramma yordamida ifodalanadigan pedagogik mehnatning mazkur tomonini psixologik deb ataydilar. Pedagogik faoliyat sub'ektiga subyektiv-psixologik talablar ham ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat o'zgarishi bilan o'zgarib boradi. Shu munosabat bilan jamiyatning zamonaviy taraqqiyoti bosqichida o'qituvchi (avvalo, boshlang'ich sinf o'qituvchisi) faoliyatiga subyektiv-psixologik talablar qanday o'zgarganligini ko'rib chiqamiz.

So'nggi o'n yilliklarda pedagogik faoliyatga talabalarning o'zgarishi sodir bo'layotgan umumiy mazmun iqtisodiy jarayonlarda davlat ishtirokchining asta-sekin qisqarishi bilan bir vaqtda sodir bo'layotgan O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishi bilan belgilanadi. Ta'lim tizimi uchun O'zbekistonda mehnat bozori va ta'lim bozorining yuzaga kelishi eng ahamiyatli bo'ldi. Zamonaviy hududiy mehnat bozori va ta'lim bozorlarining o'ziga xos xususiyati quyidagilar hisoblanadi:

ta'lim muassasalarini tijorat tashkilotlari sifatida ifodalanishi (nodavlat OTMlari, oliy ta'lim muassasalarilar va maktablar, davlat ta'lim muassasalariga shartnoma asosidagi qabul va h.k.);

ta'lim muassasalari bitiruvchilarini majburiy taqsimlash amaliyotining bekor qilinishi.

Nisbatan erkin bozor iqtisodiyoti tuzilmalari vakili sifatida ish beruvchining yangi sifatda paydo bo'lishi ijtimoiy ta'lim buyurtmasining tubdan yangi turini yuzaga keltirdi hamda unga oliy ta'limi faol yo'naltirgandir.

Ta'lim tizimi uchun murakkablik buyurtmachi sifatida ish beruvchi o'z talablarini malakalarning elementar to'plami bilan cheklashi, juda pragmatik bo'lishi, bu bilan kasbiy ta'limni kasbiy o'qitishga, kasbiy tayyorlash bilan cheklashi hamda shaxsni rivojlantiruvchi o'quv-tarbiya jarayonini qisqa muddatli kurslarga aylantirishi hisoblanadi.

Zamonaviy ish beruvchining manfaati ular tomonidan qabul qilinadigan ta'lim muassasasi bitiruvchilari unga tayyor bo'lishlari kerakligidan iborat.

Kasbiy (jumladan, pedagogik) ta'liman'anaviy shakllarining muammosi odatda bitiruvchi kasbiy vazifalarni (u tomonidan egallangan turli bilim va malakalarni) egallashga tayyor bo'ladi, ammo ularni amalga oshirishga tayyor bo'lmaydi. Bu



holatda xotirjam munosabatda bo‘lib, yangi ishga qabul qilingan oliy ma‘lumotli mutaxassisga ish o‘rgatish uchun ko‘pgina vositalarni (mablag‘larni) sarflangan. Bunga yetarlicha ko‘p vaqt – to‘rt yil muddat talab etilgan. “Yosh mutaxassis” umumiy talablardan tashqari ishlagan, uning xatolari kechirilgan, unga ta‘lim berilgan, malakasini oshirganlar, maxsus ustozlar birlashtirilgan. Ma‘lum vaqtga qadar bu odatiy holat hisoblangan. Ta‘limning o‘ziga xosligi sababli, yakuniy natijani bera olmaydigan bunday uzilishlar bo‘lishi tabiiy hisoblangan. Ammo “ta‘limning kamchiliklari sababli uzilishlar”ning hisobi ular ulkan ekanligini ko‘rsatdi.

Ish tajribasiga ega bo‘lganlar “qo‘shimcha ta‘lim olish” davridan o‘tgan va darhol samarali ishlashga qodir bo‘lganlarni ishga qabul qilish holati yorqin namoyon bo‘ldi. Umuman olganda, ish beruvchilarning nomzodlarga talablari ro‘yxati quyidagilardan iborat:

- 1) muayyan ish tajribasining mavjudligi;
- 2) qo‘shimcha maxsus bilimlar;
- 3) malakaviy talablar.

Ish beruvchilar nazariy bilimlarning katta hajmi bilan, ammo bu bilimlarni amaliyotda qo‘llashni bilmaydigan va samarali faoliyatga darhol kirisha olishga tayyor bo‘lmagan “yosh mutaxassis”ga emas, balki ko‘proq tayyor ish kuchiga yo‘nalganliklarini ta’kidlash mumkin. Shu tariqa, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitlarida “yosh mutaxassis” uchun odatda ish topish qiyin hisoblanadi. Maktab direktorlari pedagoglarni ishga qabul qilishda yosh mutaxassislardan ko‘ra ish tajribasiga ega bo‘lgan yetuk insonlarga yo‘nalgan.

Universal kasbiy kompetensiyalar (ijtimoiy, kommunikativ, axborot, muammoli, kooperativ), umumkasbiy (psixologik-pedagogik, me‘yoriy-huquqiy, refleksiv) va maxsus (fanga oid va metodik) kompetensiyalarini sinergetik integratsiyasi asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy-metodik kompetentligi tuzilmasini aniqlashtirish imkonini beradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy-metodik kompetentligi tuzilmasi

Universal kasbiy kompetensiyalar	Umumkasbiy kompetensiyalar	Maxsus kompetensiyalar
ijtimoiy	psixologik-pedagogik	fanga oid
kommunikativ	me‘yoriy-huquqiy	metodik
axborot	refleksiv	
muammoli		
kooperativ		



Mazkur muammoni bartaraf etishning aniq yo‘li mavjud bo‘lib, u ta‘lim maqsadlarini va uning sifati ko‘rsatkichlarini o‘zgartirishdan iborat, bunda kasbiy ta‘limning natijasi insonning aynan ishlab chiqarish vazifalarini samarali bajarishga tayyorgarligi hisoblanadi. “Bilim va malakalar”ning an’anaviy to‘plami bitiruvchining kasbiy faoliyatida amalga oshirishga tayyorgarligi bilan to‘ldirilishi kerak.

Maktab ta‘limining boshqa ahamiyatli buyurtmachisi - oila tomonidan ham o‘qituvchi faoliyatiga talablar o‘zgaradi. Bu o‘zgarishlarni O‘zbekiston jamiyatida so‘nggi bir necha o‘n yilliklar davomida mentalitetdagi chuqur o‘zgarishlari mazmunida qarash zarur.

Shu sababli ayrim tadqiqotchilarning “o‘zgargan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ta‘lim sohasidagi ijtimoiy buyurtmaning o‘zgarishiga olib kelganligi: maktabdan ta‘lim oluvchilarning o‘z-o‘zlarini yanada ongli va sifatli aniqlashlari uchun sharoitlar yaratish talab etilishi” to‘g‘risidagi xulosalarini [8], insonparvarlik emas, balki ularni sotsiologik so‘rovnomalar hamda ijtimoiy muvaffaqiyatli maktablarning haqiqiy faoliyatlari bilan solishtirish lozim.

P.S.Lernerning “ota-onalarning bir qismi maktabni OTMlarning qismi sifatida tushunishlari, bundan tashqari, maktab bitiruvchilarni ota-onalarning reytinglariga mos bo‘lgan OTMlarga kirishlarini kafolatlanganda uni ixtiyoriy holda qabul qilishlari” to‘g‘risidagi fikrlarini e‘tiborga olish mumkin. Rivojlanish, tarbiya maktabi, hamkorlik pedagogikasi to‘g‘risidagi, hatto ulg‘ayayotgan shaxsning hayotiy va kasbiy o‘zini-o‘zi belgilashi to‘g‘risidagi so‘zlarni ota-onalar pedagogik deklaratsiya yoki oilaning shaxsiy hayotiga aralashuv sifatida qabul qiladilar, ya‘ni ota-onalarning maktabga nisbatan ijtimoiy umidlarining insonparvarlik xususiyati tushunilmagan [8].

Ammo so‘nggi yillarda ota-onalarning ta‘limiy buyurtmalari tizimida “OTMga tayyorlash”ga yo‘nalganlik bitiruvchilarni keyingi kasbiy faoliyatga tayyorlash tomoniga o‘zgarimoqda. Shu tariqa, nafaqat kasbiy, balki umumiy ta‘limda asta-sekin umummadaniy tayyorgarlikka talab pasayadi va amaliy tayyorgarlik hamda funksional savodxonlikning roli o‘sib boradi. Birinchidan, funksional savodxonlikning asosini ta‘minlovchi umumiy boshlang‘ich ta‘limning roli ta‘lim oluvchining umummadaniy rivojlanishini ta‘minlovchi umumiy o‘rta ta‘limning roliga nisbatan o‘sishini anglatadi (YuNESKOning bahosiga ko‘ra, boshlang‘ich ta‘limning natijalarining 80% majburiyga taalluqli, ya‘ni har bir inson boshlang‘ich ta‘limda o‘zlashtirganning 80 foizi unga hayotida albatta talab etiladi [9]). Ikkinchidan, belgilangan holatning oqibati pedagog kasbiy faoliyatining funksional strukturasi o‘zgarishi hisoblanadi: tashkiliy-amaliy funktsiya gnostik, axborot-madaniy funktsiyaga nisbatan ustuvorga aylanadi.



Zamonaviy boshlang'ich ta'limning mazmuni o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishlari, ularning tafakkurlarini, bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish, ta'lim olishlarini davom ettirish va bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun asos hisoblanadi.

Ta'lim mazmunini rivojlantirishda bugungi kunda bola o'zlashtirishi ijtimoiy buyurtmaga qanchalik javob berishi va bolaga keyinchalik nima berishiga asoslanilmoqda. Aynan boshlang'ich sinfdagi ta'lim o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishlari va o'quv faoliyatining barcha komponentlarini to'liq egallashlariga yo'naltirilgan. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar o'quv faoliyatining zaruriy ko'nikma va malakalarini egallaydilar, o'qish, yozish, hisoblashni o'rganadilar, nazariy fikrlash, madaniy nutq va xulq elementlarini, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarini egallaydilar.

O'qitish jarayonida o'quvchilar egallaydigan malakalar orasida umumiy malakalar guruhi ajratiladi. Mazkur malakalarning o'ziga xosligi ular ta'lim berishning, bilim egallashning muayyan vositasi hisoblanishi va ixtiyoriy fanni o'rganish jarayonida shakllanishi va rivojlanishi, kelgusida barcha fan sohalarida amaliy qo'llanilishi mumkinligidan iboratdir. Bu malakalar umumilmiy deb ataladi. Ularga yozish malakalari taalluqli hisoblanadi.

Umumo'quv malakalari universallik, predmetoldi, qo'llash kengligi xususiyatiga va bir o'quv materialidan boshqasiga ko'chirish imkoniyatiga egadir. O'z taraqqiyotining muayyan bosqichiga erishib, umumo'quv malakalari boshqa komponentlar bilan o'zaro aloqadorlikda o'qish malakasi kabi muhim yangi hosilaning asosiga aylanadi.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi bir vaqtda o'qituvchi, tarbiyachi, bolalar faoliyatining tashkilotchisi, o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan muloqotning faol ishtirokchisi, pedagogik jarayon tadqiqotchisi, maslahatchi, ma'rifatchi va jamoatchi hisoblanadi. U doimo o'zining pedagogik mahoratini oshiradi, yangining ijodiy izlanishlarini olib boradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyati funksiyalari fan o'qituvchisining vazifalaridan ham kengroqdir, chunki u doimo sinf rahbari bo'lib ishlaydi va ko'p sonli turli ixtisoslikdagi o'quv fanlarini o'qitadi.

Yuqorida belgilangan holatlar ta'siri ostida pedagogik faoliyatning funksional tarkibidagi yuz bergan ahamiyatli o'zgarishlarga qaramay, u rasmiy holda eskirgan tarif-malakaviy talablar bilan belgilanishda davom etmoqda. V.I.Blinov hujjatlar tahlili asosida o'qituvchining tarbiyachi; o'qituvchi; bolalarning darsdan tashqari faoliyatlari tashkilotchisi; bola tarbiyasida oilaga yordam ko'rsata oladigan mutaxassis kabi asosiy funksional majburiyatlarini ajratadi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, "Mazkur funksiyalar ta'lim jarayonini tashkil etishni ma'lum bir



shakl bilan cheklamagan holda, pedagogik faoliyat standartining tabiiy tuzilishini belgilaydi” [9].

O‘tkazilgan funksional tahlil boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining zamonaviy pedagogik faoliyati funksiyalarining ko‘lamini aniqlashga imkon berdi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining muhim pedagogik funksiyalariga biz quyidagilarni kiritdik:

o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ta‘lim olishlari, rivojlanishlari va tarbiyalari uchun pedagogik sharoitlar yaratish (“ta‘lim va tarbiya” funksiyasi);

hayotni muhofazalash, bolalar salomatligini mustahkamlashni ta‘minlash (“sog‘liqni saqlash” funksiyasi);

ota-onalarni pedagogik o‘qitish, oila va maktabning tarbiyaviy ta‘sirini tartibga solish va muvofiqlashtirish (“ota-onalar bilan o‘zaro munosabat” funksiyasi);

mustaqil ta‘lim;

metodik, tajriba-sinov, tadqiqotchilik ishlarida ishtirok etish («ilmiy-metodik ish» funksiyasi).

Yuqorida qayd etilgan pedagogik funksiyalar pedagogik faoliyat tuzilmasida – ta‘limda, tarbiyada, muloqotda, o‘qituvchi shaxsining o‘z-o‘zi namoyon etishida, uning kasbiy o‘shida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar:

1. Зимняя И.А. Психология обучения родному языку (на материале русский язык как иностранного). – Москва: Русский язык, 1989. – 219 с.
2. Егорова А.С. Психофизиология умственного труда. – Ленинград: Наука, 1973. – 131 с.
3. Есипов Б.П. Самостоятельная работа учащихся на уроках. – Москва, 1961. – 240 с.
4. Машарипова У. Инновационная таълим шароитида бошлангич синф ўқувчиларининг нутқ маданиятини ривожлантириш методикаси: Дис. ... пед. фан. ном. – Т., 2017. – 163 б.
5. Машарипова У. Формирование коммуникативных компетенций младших школьников на основе развития связной речи // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития: 13-я международ. конф. – Санкт-Петербург: ЛГУ, 2015. – С.116-117.
6. Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – 12-31 б.
7. Нуруллаева Ш.У. Бошлангич синф она тили дарсларида ўқувчиларни мустикал фикрлашга ўргатиш методикаси: Дис. ... пед. фан. ном. – Т.:ТДПУ, 2008. – 145 б.
8. Огородников И.Т. Вопросы повышения эффективности урока. Сборник статей. – М., 1959. – 262 с.
9. Пидкасистый П.И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении. Теоретико-экспериментальное исследование. – Москва: Педагогика, 1980. – 240 с.
10. Подласый И.П. Педагогика: учебник для бакалавров. 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2012. – 574 с. Электронный ресурс: <https://urait.ru/bcode/361824>. Дата обращения: 16.01.2021.
11. Пискунов А.И. и др. История педагогики и образования: учебник для бакалавров. – Москва: Издательство Юрайт, 2013. – 575 с. Электронный ресурс: <https://urait.ru/bcode/368456>. Дата обращения: 16.01.2020.
12. Пронина А.А. Лингвистический анализ текста как средство развития речи учащихся: Дис. ... канд. пед. наук. – Москва, 1998. – 146 с.